

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: TARIX O'QITISHDA YANGI YONDASHUVLAR

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti Tarix 3-bosqich  
talabasi Fayzullajonova Ruhshona Mansur qizi  
[ruxshonafayzullajonova@gmail.com](mailto:ruxshonafayzullajonova@gmail.com)*

### Anatosiya

Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Unda interaktiv dasturlar, elektron darsliklar va multimediali vositalar yordamida dars jarayonini samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish va fanga qiziqishni oshirishdagi o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari, tarix ta'limi, raqamli ta'lim, interaktiv dars, virtual muhit, pedagogik innovatsiya, gamifikatsiya, test tizimi, multimedia vositalari, o'yinlashtirish, elektron darslik, onlayn ta'lim, kreativ fikrlash, mustaqil o'rganish, zamonaviy yondashuv.

### Annotation

The article highlights the importance of using information technologies in teaching history. It shows how interactive programs, electronic textbooks, and multimedia tools can make the learning process more effective. The role of modern technologies in developing students' historical thinking and increasing their interest in the subject is also analyzed.

**Keywords:** Information technologies, history education, digital learning, interactive teaching, virtual environment, pedagogical innovation, gamification, testing system, multimedia tools, game-based learning, electronic textbooks, online education, creative thinking, independent learning, modern approach.

XXI asrda insoniyat taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri bu axborot texnologiyalarining keng joriy etilishidir. Ta'lim tizimida, xususan, tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Chunki hozirgi o'quvchi "raqamli avlod" vakili bo'lib, u axborot vositalari orqali tez, aniq va ko'rgazmali ta'limni talab etadi. Axborot texnologiyalari ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda va mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Pedagogik texnologiyalar o'quv jarayoniga interaktivlik, hamkorlik va ijodkorlik kiritadi, bu esa o'quvchilarda chuqurroq tahlil va tarixiy tafakkurni shakllantiradi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Hasanov, A. Pedagogik texnologiyalar va ularni o'qitishda qo'llash. Toshkent: Fan va texnologiya. 2020.

Tarix o'qituvchisi uchun axborot texnologiyalari bu faqat darsni bezash vositasi emas, balki mazmunni yanada boyituvchi manbadir. Masalan, tarixiy xaritalar, 3D rekonstruksiylar, video darslar va interaktiv taqdimotlar yordamida o'quvchilarga o'tmish voqealari jonli tarzda ko'rsatiladi. Bu yondashuv an'anaviy o'qitishdan farqli o'laroq, o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. So'nggi yillarda ta'limda "gamifikatsiya" ya'ni o'yin elementlarini darsga kiritish usuli keng tarqalmoqda. Bu usul tarix o'qitishda ayniqsa samarali, chunki u o'quvchilarda qiziqish, raqobat va ijodkorlikni kuchaytiradi. O'yin asosidagi ta'lim o'quvchining faolligini oshirib, ularni ma'lumotni yodlash emas, balki tushunishga undaydi<sup>2</sup>. O'yinlashtirish orqali o'quvchilar tarixiy voqealarni muhokama qiladi, tahlil qiladi, ularning sabab va oqibatlarini o'zlari aniqlaydi. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlashini kuchaytiradi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar faoliyatini rollarga bo'lib o'rganish yoki interaktiv savol-javoblar orqali tahlil qilish o'quvchini faol o'rganishga jalb etadi.

Interaktiv test tizimlari ham yangi yondashuv sifatida katta afzallikka ega. Ular orqali o'quvchi o'z bilimni tez va aniq baholay oladi. Testlar nafaqat bilimni tekshiradi, balki o'quvchiga xatolarini ko'rsatib, ularni tahlil qilish imkonini beradi. Bunday testlar o'quvchining mustaqil ishlashini rag'batlantiradi, o'qituvchi esa natijalar orqali individual yondashuvni tanlaydi. Raqamli testlarning qulayliklaridan biri shundaki, ular vaqtni tejaydi, avtomatik baholaydi va natijalarni grafik tarzda ko'rsatadi. Bu esa o'qituvchi uchun darsni tahlil qilishda juda foydali. Shu bilan birga, o'yin shaklidagi testlar orqali murakkab tarixiy davrlarni eslab qolish osonlashadi, o'quvchi esa jarayonni zavq bilan bajaradi. Zamonaviy ta'limda virtual muhit muhim o'rin egallamoqda. Onlayn darslar, videoma'ruzalar, elektron darsliklar, virtual muzeylar va arxivlar o'quvchilarga tarixni chuqurroq o'rganish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Raqamli ta'lim strategiyasi 2030" hujjatida ta'kidlanganidek: "har bir o'quvchi uchun elektron resurslar orqali o'qish imkoniyatini yaratish milliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir".<sup>3</sup> Virtual darslar orqali tarixiy manbalar bilan bevosita ishlash imkoniyati kengaymoqda. O'quvchi arxiv hujjatlarini onlayn ko'rish, tarixiy shaharlar yoki yodgorliklarni 3D formatda sayohat qilish orqali o'tmishni real tasavvur qila oladi. Bu esa an'anaviy kitobiy o'qishdan ko'ra ta'sirchanroq natija beradi. UNESCO hisobotida qayd etilishicha, "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim sifatini oshirishda, ayniqsa, tarix kabi tahliliy fanlarda o'quvchilarning o'z fikrini asoslash, solishtirish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi".<sup>4</sup>

<sup>2</sup> Rasulov, M. (2022). "Axborot texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va imkoniyatlari." Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, №4, 74-bet.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Raqamli ta'lim strategiyasi 2030. Toshkent: XTV nashriyoti. (2023).

<sup>4</sup> UNESCO. ICT in Education: Policy, Practice and Possibilities. Paris: UNESCO Publishing. (2021).

Yangi texnologiyalar davrida tarix o'qituvchisi dars jarayonining yagona manbai emas, balki yo'l-yo'riq beruvchi, tahlilchi sifatida faoliyat yuritadi. U o'quvchilarni mustaqil bilim olishga yo'naltiradi, texnologiyalarni tanlab va maqsadli qo'llaydi. Bugungi kunga keng qo'llanilayotgan sun'iy intellekt (AI) ta'lim sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. AI yordamida dars jarayonini tahlil qilish, o'quvchining individual o'rganish sur'atiga qarab moslashtirish mumkin.

Masalan, ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalari yordamida o'quvchi tarixiy savollarga tezkor javob topadi, manbalarni izlaydi yoki matn tahlili bilan shug'ullanadi. Shuningdek, AI o'quvchilarning xatolarini tahlil qilib, ularga mos test yoki mashqlarni avtomatik taklif etadi.

2024-yilda e'lon qilingan xalqaro hisobotda shunday deyiladi: "Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari tarix fani uchun eng katta imkoniyatlardan biridir, chunki ular o'quvchini individual o'rganish yo'liga yo'naltiradi." Bulardan bir nechtasini sanab o'tishimiz mumkin:

Canva – tarixiy taqdimot va infografikalar yaratish uchun qulay vosita;

Padlet – o'quvchilar uchun tarixiy g'oyalar doskasi sifatida ishlatiladi;

ThingLink – interaktiv xaritalar va tasvirlar yaratish imkonini beradi;

YouTube Edu – tarixiy videodarslar kutubxonasi sifatida qo'llaniladi;

Google Arts Culture – jahon muzeylari va tarixiy joylarning 3D ko'rinishlarini o'rganish imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham "Yangi O'zbekiston maktabi" loyihasi doirasida darslarda interaktiv ekranlar, elektron darsliklar, multimedia vositalari joriy etilmoqda.

Axborot texnologiyalari zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, ularni qo'llashda ayrim kamchiliklar, muammolar va cheklovlar ham mavjud. Har qanday texnologik vosita inson omilidan ustun bo'la olmaydi, shuning uchun bu masalaga muvozanatli yondashuv zarur. O'zbekistonning ayrim ta'lim muassasalarida kompyuterlar, interaktiv doskalar yoki barqaror internet tarmog'ining yetishmasligi dars jarayonini to'liq raqamlashtirishga to'sqinlik qiladi. "Texnik baza yetarli bo'lmagan sharoitda innovatsion metodlarni qo'llash nafaqat murakkab, balki o'qituvchidan ortiqcha kuch va vaqt talab etadi".

Bu holatda o'qituvchi multimedia vositalaridan to'liq foydalana olmaydi. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchining texnik ko'nikmalari yuqori bo'lishi zarur. Ammo ko'plab tajribali pedagoglar hali ham an'anaviy usullarga tayanadi. Hasanov A. fikricha, "ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlarning sekin kechishiga sabab o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasining past darajada bo'lishi". Natijada, darsda texnologiyalar noto'g'ri yoki samarasiz qo'llanadi, bu esa o'quvchilarda charchoq, diqqatning bo'linishi va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Axborot texnologiyalari o'quvchiga tezkor

axborot olish imkonini beradi. Ammo bu qulaylik ba'zida tanqidiy fikrlashning pasayishiga sabab bo'ladi. Internetdagi tayyor referatlar, taqdimotlar yoki test javoblari o'quvchilarda mustaqil izlanish madaniyatini zaiflashtiradi. Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) o'quvchilarda qiziqishni oshirsa-da, uni ortiqcha qo'llash natijasida dars jarayoni "o'yin markaziga" aylanib ketishi mumkin. Natijada, tarixiy tafakkur o'rniga faqat ball to'plash yoki g'oliblikka intilish ustun bo'ladi.

Shuningdek, test tizimlari ham ba'zida o'quvchini tahliliy fikrlashdan uzoqlashtirib, faqat to'g'ri javobni topishga yo'naltiradi. Bu esa tarix fanining chuqur mohiyatini o'zlashtirishni cheklaydi. Internetda mavjud bo'lgan barcha tarixiy ma'lumotlar ham ishonchli emas. O'quvchilar manbani tanlashda tajribasizlik qiladi, ayrim saytlardagi noto'g'ri tarixiy ma'lumotlar ularning bilimni chalg'itadi. Elektron manbalardan nazoratsiz foydalanish o'quvchida tarixiy voqealarni noto'g'ri talqin qilish yoki plagiat holatlarining ortishiga olib keladi<sup>5</sup>. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga manbashunoslik madaniyatini, ya'ni ishonchli manbani tanlash, iqtibos keltirish va tahlil qilish qoidalarini o'rgatishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari tarix ta'limining ajralmas qismiga aylandi. Ular o'quv jarayonini interaktiv, ko'rgazmali va zamon talablariga mos tarzda olib borish imkonini beradi. Shu bois, har bir tarix o'qituvchisi texnologik yondashuvlardan oqilona va maqsadli foydalanib, o'quvchilarni nafaqat tarixni bilishga, balki uni his etishga ham o'rgatishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hasanov, A. Pedagogik texnologiyalar va ularni o'qitishda qo'llash. Toshkent: Fan va texnologiya. 2020.
2. Rasulov, M. "Axborot texnologiyalarining ta'limdagi o'rnini va imkoniyatlari." Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, №4, 2022.
3. Yusupova, D. "Tarix o'qitishda zamonaviy yondashuvlar." UzEdu.uz, <https://uzedu.uz/>. 2023.
4. UNESCO. ICT in Education: Policy, Practice and Possibilities. Paris: UNESCO Publishing. 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Raqamli ta'lim strategiyasi 2030. Toshkent: XTV nashriyoti. 2023.
6. Adenuga F., Use of ICT in Teaching History, 2017.
7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari // Info. Kom Uz, № 3, 2006.

<sup>5</sup> Yusupova, D. "Tarix o'qitishda zamonaviy yondashuvlar." UzEdu.uz, <https://uzedu.uz/>.(2023).